



SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI
ISHLAR BOSHQARMASI
B U Y R U Q

2023-yil 4 yanvar

1-son

Samarqand shahri

**Komissiya tarkibini
tasdiqlash haqida**

Samarqand viloyati hokimligida «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20 maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori ijrosini ta’minalash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimligiga xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, asbob-uskunalar, mebel, orgtexnika vositalari, oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa jihozlarni harid qilish va xisobdan chiqarish bo‘yicha doimiy ishlovchi tanlov (tender) Komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Komissiya zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, asbob-uskunalar, mebel, orgtexnika vositalari, oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa jihozlarni yetkazib berish bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning takliflarini ko‘rib chiqish;

xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, asbob-uskunalar, mebel, orgtexnika vositalari, oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa jihozlarni yetkazib berish bo‘yicha eng yaxshi xaridlar takliflarini tanlab olish;

xaridlar tanlovi natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish, imzo bilan tasdiqlash uchun Ishlar boshqarmasi boshlig‘iga taqdim etish;

tanlovda aniqlangan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, asbob-uskunalar, mebel, orgtexnika vositalari, oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa jihozlarni yetkazib berish bo‘yicha ularning xususiyatidan kelib chiqib, xo‘jalik shartnomasi loyihasini 2 (ikki) nusxada ishlab chiqish;

xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, asbob-uskunalar, mebel, orgtexnika vositalari, oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa jihozlarni yetkazib berish bo‘yicha xo‘jalik shartnomasi loyihasini tuzish uchun yurist xizmatidan foydalanish;

xo‘jalik shartnomasi loyihasini tasdiqlash uchun Ishlar boshqarmasi boshlig‘iga taqdim etish;

ikki tomonlama tasdiqlangan ho‘jalik shartnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun viloyat G‘aznachilik boshqarmasiga kechiktirmasdan taqdim etishni tashkil etish.

3. Moddiy javobgar shaxslarga xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, asbob- uskunalar, mebel, orgtexnika vositalari, oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa jihozlarni xo‘jalik shartnomasida belgilangan tartibda viloyat bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng, to‘lov grafigida belgilangan 30 foiz oldindan to‘lov amalga oshirilgandan keyin olish topshirilsin.

4. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Viloyat hokimligi
Ishlar boshqarmasi boshlig‘i**

N.Saidov



24

Viloyat hokimligining
2023-yil 4 yanvardagi 1-sonli buyrug‘iga
ILOVA

Samarqand viloyati hokimligiga xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, asbob-uskunalar, mebel, orgtexnika vositalari, oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa jihozlarni xarid qilish bo‘yicha doimiy ishlovchi tanlov (tender)

K O M I S S I Y A S I T A R K I B I

- | | |
|-----------------------|--|
| 1. K.Xushbakov | - viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rnbosari kotibiyati mudiri |
| 2. Sh.Quvvatov | - viloyat hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari bo‘yicha kotibiyati mudiri |
| 3. F.Urdashov | - viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi |
| 4. A.Qodirov | - viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi bosh mutaxassisi |
| 5. F.Nishonov | - viloyat hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy ishlar bo‘yicha o‘rnbosari kotibiyati bosh mutaxassisi |

IZOH: Komissiya a’zolarining lavozimi o‘zgargan taqdirda, mazkur lavozimga yangi tayinlangan mas‘ul xodim komissiya tarkibiga kiradi. Komissiya tarkibi har yili yangi buyruq bilan tasdiqlanadi.